

**BANKLARDA XUSUSIY KAPITAL TO‘G‘RISIDAGI HISOBOT  
VA UNING TARKIBI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH**

***Axmetova Maqsuda Fayzullayevna***

*O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda banklarda xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot va uning tarkibi tahlilini takomillashtirish, bank xizmatlarining ilmiy-nazariy asoslari o‘rganib chiqilib, rivojlangan xorij amaliyotida ularni rivojlantirish amaliyoti o‘rganib chiqilgan. Xususiy kapitalning asosiy tarkibiy qismlari, jumladan, ustav kapitali, qo‘srimcha kapital, jamg‘armalar va bank foydasi yoritiladi. Shu bilan birga, hisobotdagi kapitalning aks ettirilishi va tahlili bankning moliyaviy holatini baholash uchun zarur vosita sifatida qaraladi.

**Kalit so‘zlar:**xususiy kapitali, bank kapitali,ustav kapitali,qo‘srimcha kapital,taqsimlanmagan foyda , masofaviy bank xizmatlari,zaxira fondi,moliyaviy hisobot ,foyda va zarar

### **Kirish**

Xususiy kapital bank moliyaviy barqarorligining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, uning to‘g‘ri hisobga olinishi va tahlil qilinishi bank faoliyatining samaradorligi hamda raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston bank sektorida xususiy kapitalning ahamiyati kata bo‘lib, bu banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va risklarni boshqarish uchun asosiy omil hisoblanadi. Xususiy kapitalning miqdori va tarkibiy qismlari bankning ichki moliyaviy mustahkamligini tashqi moliyaviy manbalarga qaramligini kamaytirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Tijorat banklarida xususiy kapital – bu bankning o‘z egalari tomonidan qo‘yilgan mablag‘lar yoki foyda hisobidan shakllangan manbalardir. Bu kapital quyidagilardan tarkib topadi:

- Ustav kapitali;
- Qo‘srimcha kapital (emissiyada ortiqcha olingan mablag‘lar);
- Ta’sischilarining qo‘srimcha badallari;
- Bo‘limmagan foyda va zaxira fondlari.

Tijorat banklarida xususiy kapitalning hisoblanishi bankning moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bank kapitali – bu bankning faoliyatini boshlash va barqaror davom ettirish uchun zarur bo‘lgan asosiy manba hisoblanadi. U bankning moliyaviy tayanchini shakllantiradi va operatsiyalar jarayonida yuzaga keladigan kutilmagan zararlarni qoplash uchun “himoya yostig‘i” vazifasini bajaradi. Kapitalning mavjudligi bankning to‘lov qobiliyatini saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi, bu esa bankning barqarorligini ta’minlashga yordam beradi. Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot

xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot davri boshiga va oxiriga bo‘lgan tegishli axborotni olib berishi kerak. “Xususiy kapital to‘g‘risida”gi hisobot shaklini korxona raxbari, bosh buxgalter imzolari bilan tasdiqlaydilar.

### **Mavzuning dolzarbliги**

Banklarning moliyaviy holati va barqarorligi ularning kapital tuzilmasi bilan bevosita bog‘liq. Ayniqsa xususiy kapital bankning moliyaviy faoliyatida muhim o‘rin tutadi ,chunki u bankning o‘z mablag‘lari asosida qanday ishlashini ko‘rsatib beradi. Bank kapital moliyaviy resurslarning asosiy manbai sifatida ichki operatsiyalarni moliyalashtirish va tashqi risklarni boshqarish imkonini beradi. Xususiy kapital bankka nafaqat ichki muammolarni hal qilish, balki tashqi bozor sharoitlaridag io‘zgarishlarga ham tezkor moslashishga imkon beradi. Shu bilan birga,banklarning o‘z mablag‘lariga ega bo‘lishi ularga ko‘proq mustaqillik beradi,ya’ni ular kredit olish yoki boshqa majburiyatlarni bajarish uchun tashqi manbalarga bog‘liq bo‘lmaydi.Xususiy kapitalning yuqori darjasasi bankning moliyaviy xavfsizligini ta’minlab,bozor raqobatbardoshligini oshiradi. Bundan tashqari, xususiy kapital bankning likvidlik darajasini yaxshilaydi, bu esa moliyaviy inqiroz va stress davrida o‘z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini oshiradi.Xususiy kapitalni to‘g‘ri boshqarish va uning hisobotini aniq yuritish moliyaviy barqarorlikni saqlash uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.Bankning foyda va zarar ko‘rsatkichlari, jamg‘armalari va qo‘srimcha kapitali to‘g‘risidagi hisobotlarni puxta tahlil qilish, bank faoliyatini samarali boshqarish imkonini beradi. Shu sababli ,banklar uchun xususiy kapitalni muntazam tahlil qilish va uning dinamikasini kuzatish eng asosiy moliyaviy strategiyalardan biri hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotni tuzishdan maqsad xususiy kapitalning hisobot davri boshida va oxiriga bo‘lgan holati uning tarkibidagi o‘zgarishlar haqida axborotlarni olib berish hisoblanadi.Hisobotda xususiy kapital va uning tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi ustav kapiali,qo’shilgan kapital,rezerv kapitali,taqsimlanmagan foyda sotib olingan aksiyalari va xususiy kapitalning boshqa elementlari haqida axborotlarni olib berishi kerak. Kapitalni riskga asoslangan yondashuv bilan boshqarish

– faqat miqdor emas, balki aktivlar sifati va tavakkal darajasini ham hisobga olish zarur.

- IFRS (xalqaro moliyaviy hisobot standartlari) bo‘yicha to‘liq o‘tish
- bu kapitalni shaffof, real bozor qiymatida hisobga olishga imkon beradi.- Kapital rejalashtirish (kapital planning) tizimini joriy qilish – banklar bir necha yil oldinga kapital tuzilmasini prognoz qilishi kerak.

Xususiy kapital buxgalteriya hisobining muhim fundamental tamoyillaridan biri bo‘lgan ikki yoqlama yozuv tamoyiliga asoslanildi. Buning zamirida quyidagi tenglik yotadi: Aktiv=Xususiy kapital+Majburiyatlar.

Bu tenglikdan ko‘rinib turibdiki, xususiy kapital har bir kichik tadbirkorlik subyektlar faoliyatining mulkiy va moliyaviy holatini ifodalaydi.

Moliyaviy hisobotning 5-shaklda xususiy kapitalning tuzilmasi quyidagilardan iboratdir: ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda, xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar. Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot davri boshiga va oxiriga bo‘lgan tegishli axborotni ochib berishi kerak. “Xususiy kapital to‘g‘risida”gi hisobot shaklini korxona raxbari, bosh buxgalter imzolari bilan tasdiqlaydilar.

### **Foydalaniqan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida 2019–05–11-yildagi Qonuni, O‘RQ–580-son.
2. T.M. Karaliyev, O.B. Sattarov, I.F. Sayfiddinov, Tijorat banklari faoliyati tahlili, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; Toshkent Moliya instituti. “Iqtisod–Moliya”, 2013–y. – 192 b.
3. M. Yadgarova, R. Qurbonov, Bank audit, Darslik, T.: “Iqtisod–Moliya”, 2019–y. – 320 b.
4. Risk Management in Commercial Banks’ Participating in Private Equity – Case Study Based on Silicon Valley Bank Zhou Li, Mei Jing, Sun Xiaoyu, July 2013.
5. Adizov I.J. “Tijorat banklarida xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotni takomillashtirish.” Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 34(3), 77–82. 2024.
6. Raxmanov I. “Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo‘llari.” Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(11–12). 2024.
7. Yusubjanov F. “Tijorat banklarida ichki audit va uni takomillashtirish yo‘llari.” Yevroosiyo huquq, moliya va amaliy fanlar jurnali, 4(4), 223–234. 2024.
8. Jalilov H. “Tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish.” NRJ, 1
9. 2024.9. Jovliyev X.B. “Tijorat banklari xizmatlarining transformatsiyasi.” Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 4(03), 119–122. 2024.